

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Farg'onan viloyati Quvasoy shahar 10-umumiy urta ta'lif muktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

G'afarova Shoiraxon Melikovna

Ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish bugungi jamiyatda maktab oldiga qo'ygan muhim talablardan kelib chiqadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy qobiliyati va faolligini o'stirishdekmuhim vazifadarsdafaollikprinsipini muvaffaqiyatli qo'llash darajasi bilan chambarchas bog'langan. Pedagog olimlar fikriga ko'ra faollik tamoyili quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi:

1. Ishning maqsad va vazifalarini aniq bilish, tushunish va tushuntirish;
2. Bilish jarayonining analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va qiyoslash kabi ko'rinish va shakllarni qo'llab o'qitish;
3. Har bir so'z, gap, tushunchani to'liq ochib bera olish;
4. Jamoa bo'lib, guruh bo'lib, bir-birini o'qitishga erishish;
5. Ta'lif samarali bo'ladi, qachonki siz ishlatalishiga oid misollar ko'proq keltirsangiz;
6. Har bir narsadan asosiysini topishga o'rgating;
7. Har bir shaxsning individual xususiyatlarini biling, shunga mos o'qiting, muomalada bo'ling;
8. O'ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgating. Yordamchi narsalar ko'chirish, aytib turish, nusxa olishga o'rgatmang
9. Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko'proq qo'llang.

Demak, faollik shaxsning bilimlarni puxta egallash, o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan muhim qobiliyatdi. Faollashtirish esa muayyan faoliyat jarayonida shaxsning aqli, hissiyoti va irodasini kuchaytirish, takomillashtirish

orqali uning ish qobiliyatini oshirish demakdir. Uning fikrlashi, aqliy faoliyat ko'rsatishi, birinchidan, tashqi ta'sir natijasida (darslik materiali, o'qituvchi qo'llaydigan metod, vosita va usullar yordamida) amalga oshirilsa, ikkinchidan, ichki omillar-o'z faoliyatini o'zi aktivlashtirish orqali yuzaga chiqadi. Ta'limni faollashtirish o'quvchi faoliyatining mahsuli bo'lib, bola faoliyatini faollashtirishga qaratilgan harakat sanaladi. Ko'pgina pedagogik adabiyotlarda agar o'quvchi materialni tushunarli qilib, bayon qilsa, ko'rsatmalilik hamda ta'limning texnik vositalaridan foydalansa, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni faollandishib, ta'lim samarali bo'ladi de-gan fikr ilgari suriladi. Ta'limni faollashtirish yuqorida ko'rsatilgan faktorlar bilan bir qatorda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini uyushtirish bilan ham bog'liq. Fikrlash bo'limgan joyda faollik haqida gap bo'lishi mumkin emas. Demak, ta'limni faollashtirish o'quvchi tomonidan bolaning fikrlash faoliyatini uyushtirish mahsuli bo'lib sanaladi. Boshlang'ich sinflarda o'yinlardan foydalanish o'quvchilar bilimini oshirish bilan birga, ularni erkin va mustaqil fikrlashga yo'naltira olish bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, dars jarayonini qiziqarli kechishini ham ta'minlaydi. O'quv-topshiriqlarining yana bir turi topishmoqlar bo'lib, o'quvchilar faoliyatini faollashtirishda - ularning imkoniyatlari katta. Topishmoqlar o'quvchilarda til sezgirligini oshiradi. Topshiriqlar mazmuniga yashiringan noma'lumlik o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi. Topishmoqlar boshqa o'quv topshiriqlari singari o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlariga mos bo'lishi, o'rganilayotgan mavzu yoki bo'limning xarakter xususiyatlarini hisobga olishi lozim. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqini rivojlantirishga qaratilgan topishmoqlar ona tili darslari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq qilish kun sayin kuchayib bormoqda. Interfaol usullar

o'quvchilarni mehnat qilishga, diqqatni to'plashga, o'z ustida mustaqil ishlashga, fikrlashga, izlanishga chorlaydi, ularning darslarga qiziqishi ortib, darsdagi ishtiroki faollashadi va dars samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Demak, yuqoridagi berilgan interfaol metodlar kabi tajribalarga asoslangan ta'lif usullari orqali o'quvchilarda faollik va dars samaradorligining oshishi ta'minlanadi. O'qituvchi ish faoliyatida mustaqil ravishda mavzuga mosini tanlash va qo'llash imkoniga ega. Quyida berilgan metodlarning ba'zilaridan boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarida qanday foydalanish mumkinligi misollarda berilgan.

O'YINLAR VA BARDAMLASHTIRUVCHI MASHQLAR - kichik treninglar, o'yinlar, qo'shiq va she'rlar mazmuniga ko'ra harakatlar qilish asosida amalga oshirilib, o'yin, o'qish, mehnat kabi faoliyat turlaridan foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyat turi o'qish bo'lishiga qaramay, bir faoliyatdan to'la ikkinchisiga o'tish bolada qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, dars jarayonida turli ta'limiylar o'yinlar qo'llangan - holda darslar tashkil etiladi. Bular bilan bir qatorda, yuqorida ham to'xtalib o'tgan edik, o'quvchini tetiklashtiruvchi mashqlar, dam olish daqiqalari o'tkazish orqali ruhiy, jismoniy toliqishini oldini olib, darsga bo'lgan diqqatini jamlashga olib keladi. O'tkazilayotgan dam olish mashqlari avvalo, dars mavzusiga qolaversa. fanga mos bo'lsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda dam olish mashqlari asosan harakatli o'yinlar, she'r, qo'shiqlar mazmuniga ko'ra harakatlar, kichik yoshdagi o'quvchilarga mos psixologik testlar, qiziqarli hangomalar, topishmoqlar ko'rinishida bo'lishi lozim. Quyida bardamlashtiruvchi mashqlardan namunalar keltirib o'tamiz.

"Mevali salat" harakatli o'yini.

Sinf o'quvchilari besh turdag'i mevalar nomlari asosida guruhlarga birlashtiriladilar, ya'ni "olma", "nok", "shaftoli" "behi", "anor". Boshlovchi qaysi mevalardan salat tayyorlashini aytsa, o'quvchilar belgilangan meva nomlariga ko'ra joylarini almashadilar va boshlovchi bo'sh o'rnlardan biriga tez o'tirib olishi kerak.

O`tirolmay qolgan o`quvchi boshlovchi vazifasini bajaradi. O`yin shu zaylda 1-2 daqiqa davom etadi. Masalan, boshlovchi: "Men barcha mevalardan salat tayyorlamoqchiman". - deb aytsa barcha "mevalar o`rinlarini almashtiradilar, yoki "Men olma va nokdan salat tayyorlamoqchiman", - deb aytsa faqat boshlovchi aytgan mevalar o`rinlarini almashtiradilar.

"Shahzoda va malikalar" harakatlari o`yini

Sinf o`quvchilari 3 tadan guruhchaga birlashtirilib, 2 tasi ark (bir-birining qo`liga qo`lini qo`ygan holda, ark -saroy hosil qiladilar), o`rtadagi o`quvchi yo shahzoda yo malika vazifasini bajaradi. Boshlovchi "podshoh" vazifasida bo`lib, farmonlar beradi, ya'ni, "Malika va shahzodalar sayrga chiqinglar!" Malika va shahzodalar farmonga ko`ra arkdan chiqib, "sayr" qilishadi. "Malika va shahzodalar saroya qayting!"- farmonidan so`ng, barcha saroya qaytishga harakat qiladi. Podshoh ham shahzoda yoki malikalardan birining o`rniga kirib oladi. Saroydan tashqarida qolgan boshlovchi "podshoh" vazifasini o`taydi va hokazo. Boshlang`ich sinflarda savod o`rgatish jarayonidan boshlab interfaol metod va texnologiyalar yordamida ta`lim jarayonini tashkil qilish, olib borish maqsadga muvofiq bo`lishi bilan birga o`qituvchi lug`ati va nutqida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Ya'ni, ta`lim jarayonida foydalanilayotgan metod va texnologiyalarda o`quvchilar va o`qituvchining bajarayotgan vazifasiga ko`ra nomlanadi.

Suhbatoro savol-javob usulida hozirgacha eng samarali ta`lim usullaridan biri sifatida qo`llaniladi. Bunda o`quvchi chuqur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to`g`ri so`zlashga, nutqning mantiqiyligi va ravonligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o`rgatilgan. Masalan, suhbatoro suhbatlar deganda, o`qituvchining o`quvchini mustaqil va faol flkrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto`g`ri jihatlami ziyraklik bilan aniqlagan holda, ularni tuzatish yo`liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi.

Bundan suhbat bosqichlarini quyidagicha soddalashtirib ifodalash mumkin:

1. Savol-javoblar orqali o`quvchining bilim darajasi va fikrlash qobiliyatini umumiylar tarzda aniqlash.
2. O`rganilayotgan mavzuning mazmunini o`quvchi motivlariga muvofiqlashtirish. Bu asosan, o`quvchining qiziqish va qobiliyatlariga mos bo`lgan misollar, tanlash orqali amalga oshiriladi.
3. O`quvchini faol muloqotga olib kirish. Bunda asosan rag`batlantirish usullaridan foydalaniladi.
4. O`qituvchi o`zini bilmaydigan odamdek, o`quvchidek tutib, savollar berib borishi.
5. O`quvchining to`g`ri fikrlarini maqtash orqali uni yanada erkin va chuqurroq fikrlashga, so`zlashga jalb qilish.
6. O`quvchining xato fikrlarini aniqlab borish.
7. O`quvchining xato fikrlariga nisbatan to`g`ri fikrni o`qituvchi tomonidan yaqqol mantiqiy asoslangan sifatida bayon qilish yoki tushuntirish orqali o`quvchi uchun muammoli vaziyat yaratilib, o`quvchini o`z xatolarini o`zi tuzatishiga yo`naltirish. Bundan ko`rinib turibdiki, ushbu usul yuqori natija berishi shubhasizdir. Ammo, buning jiddiy shartlari ham mavjud. Bular o`qituvchining keng bilimga va ijodiy fikr-mahoratga ega bo`lishi kabilardan iborat.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari nutqida o`stirishda yod oldirish. So`zlarning ma`nosini tushuntirish yoki qayta hikoya qildirish kabi usullardan foydalanibgina qolmay, balki ular uchun qiziqarli faoliyat bo`gan o`yinlardan foydalanish, ayniqsa, ko`zlangan maqsad, yuqori natijalarini qo`lga kiritishda katta yordam beradi. Chunki o`yin kichik maktab yoshidagi o`quvchilar faoliyatida asosiy o`rinni egallaydi. Bolalarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqib aytadigan bo`lsak, o`yin dunyonи va o`zlikni anglashda, bog`lanishli nutqni o`stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Darslarda o`quvchilar zo`r qiziqish bilan ishtiroy etadigan bir nechta o`yinlardan namunalar keltiramiz.

“Hikoya”

O`qituvchi xattaxtaga bir nechta so`z yozib qo`yadi. Masalan: Nafisa, soat, yomg`ir, kitob kabi. O`quvchilar mustaqil ravishda shu so`zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Bunda ularning lug`at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to`g`ri tuzish, tovushlarni to`g`ri tallaffuz qilish. ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. O`qituvchi faol ishtirokchilarni vaqt - vaqt bilan rag`batlantirib borishi o`quvchilarning o`ziga bo`lgan ishonchini orttiradi va bundan - da faol bo`lishiga undaydi. Mazkur o`yinlar darsdan tashqari mashg`ulotlarda va to`garaklarda ham bemalol foydalanish mumkin.

“Qarama-qarshi so`zlar.”

Bu o`yin mantiqiy tafakkuming hamda nutqnining rivojlanishiga yordam beradi. O`yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o`tkazish mumkin. O`yin sharti quydagicha: o`qituvchi bola yoki o`quvchiga bir so`zni aytadi, o`quvchi shu so`zning ma`nosiga qarama - qarshi bo`lgan so`zni topib aytishi kerak. Masalan: katta - kichik, issiq – sovuq, achiq – shirin, qorong`u - yoruq, keng-tor, uzoq-yaqin va hokazo. Odatda bolalar o`yin boshida biroz qiynalshadilar, aytilgan so`zga javoban antoni so`zni emas, sinonim so`z bilan javob beradi, masalan: katta – baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o`yining mohiyatini tushunib olganlaridan so`ng o`quvchilar yaxshi o`ynaydilar. O`yin bir necha marta o`tkazilganidan so`ng o`quvchilar abstrakt tushunchalami ham osonlik bilan tushunadilar va javob beradi, shunda o`quvchilarning nutqi ham rivjlana boradi. Masalan: chaqqon - yalqov, ishchan - dangasa kabi so`zlarga ham tez javob topa oladi.

“To`rtinchisi ortiqcha”

Bu o`yin rasmlarsiz o`ynaladi. O`quvchiga yoki bolaga bir guruhga kiruvchi uchta predmet va boshqa guruhga mansub bitta predmet nomi aytildi. Masalan: atirgul, boychechak, binafsha, qo`iqorin. O`quvchi ular orasidan ortiqchasini aytganidan so`ng undan fikrini asoslab berishi so`ralishi kerak. Bu o`yinlar o`quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga nutqning o`sishiga ham yordam beradi. O`yin individual tarzda o`tkazilsa ham yaxshi samara

beradi, guruhda musobaqa ko`rinishida o`tkazilsa o`quvchilarning qiziqishi yanada ortadi.

“O`zaro bog`liqlik”

O`quvchilarga rasmiy kartochkalar tarqatiladi. Ular kartochkalar bilan tanishib chiqqach, o`quvchi rasmdagi predmet haqida gapirib beradi. Masalan: “Bu olma. Olma bog`da o`sadi va mevalarga kiradi. Uni o`quvchilar juda yaxshi ko`rishadi”. Keyin ikkinchi bola ham o`zidagi predmet haqida gapiradi va o`zidagi predmet bilan birinchi o`quvchidagi predmetni o`zaro bog`liqligini aytishi kerak. Masalan: “Bu quyosh. Quyosh chiqsa havo isiydi. Uni o`quvchilar yaxshi ko`rishadi. Quyosh istib tursa olma va boshqa mevalar pishadi”. Keyin uchinchi o`quvchi o`zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o`zidagi predmet orasidagi bog`liqliknini topishi kerak. O`yin shu tartibda davom etadi.

“Buni qanday qo`llash mumkin”

O`quvchilarga imkon qadar ko`p hollarda ishlatilishi mumkin bo`lgan predmet nomini aytin. Har bir o`quvchi o`z uslubini taklif qilishiga erishing. Masalan: Siz qalam so`zini aytishingiz mumkin. Uni ishlatish yo`llari turlicha bo`lishi mumkin: rasm chizish, yozish, ko`rsatkich sifatida va hokazo

“Umumiylilikni izlash”

O`quvchilar aylana qurib o`tiradilar. Olib boruvchi o`quvchilardan biriga to`pni otayotib, bir-biri bilan bog`lanmagan 2 ta so`zni aytadi. Masalan: maktab va o`quvchi, kitob va javon, quyosh va gul va hokazo. To`pni tutib olgan o`quvchi so`z juftligi orasidan umumiylilik belgini aytib to`pni qaytaradi.

“Safar”

O`quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo`lgan yo`lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O`quvchilar bir necha kun davomida “obekt” ni mustaqil kuzatadilar va uni og`zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof - muhitga diqqat - e'tibor talab etiladigan bu o`yib vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, yon atrofga e'tiborli bo`lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o`yinlardan foydalanganda o`quvchilarning nutqi

rivojlanad, lug'at boyligi vanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. Yuqorida keltirilgan ta limiy o`yinlar o`quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o`zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o`stirishga yo`naltitirilgan har bir mashg`ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Ta'larning faol usullarini tadbiq etish yo'llari, ijodiy tafakkur sohiblarini, ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalash bugungi kun o'quvchilari oldiga jiddiy ma'suliyatni qo'yemoqda. Shunga ko'ra biz mana shunday ma'suliyatli vazifaning yechimini topishga harakat qildik. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar faolligini oshirish uchun qiziqarli o'yin-topshiriqlar, topishmoqlardan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan (kompyuterlardan, noan'anaviy dars usullaridan, interfaol metodlardan) unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizzxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. - T.: TDPU. 2000.
2. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.
3. G'ulomova X., Yo'ldosheva sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: TDPU, 2013.